



KARTALARDAGI YOZUVLAR HAMDA MATNLI MATERIALLAR VA ULARNI JIHOZLASH

Ramozonov Og'abek Zafarovich

Urganch davlat universiteti

Geodeziya, kartaografiya va kadastr yo'nalishi talabasi

Email adres (ramazonovogabek61@gmail.com)

telefon raqam (+998) 93 086 61 36.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kartalarda ishlatiladigan kartografik yozuvlar haqidagi ma'lumotlar, shu bilan birgalikda kartalarning mazmunini ochib beruvchi matnli materillar bilan kartalarni qay tartibda jihozlash hamda kartada matnli ma'lumotlarning ahamiyati ularning to'g'ri yoki noto'g'ri qo'llanilishini o'rganib chiqamiz.*

Yuqoridagi mavzular asnosida ularning nazariy va amaliy ahamiyatini o'rganishdan iborat.

Kalit so'zlar: *Xaritadaagi yozuvlar, toponim, kartografik atamalar, yozuvlarni loyihalash, kartaning mavzusi, yorliqlar, GAT, shartli belgilar, nashr qilish prinsiplari, shriftlar, aniqlik.*

Kirish: Kartalar qoidaga ko'ra simvolik xarakterga ega bo'lsada, ko'pchilik kartalarda matnli materiallar uning mazmunini tashkil qiladi. Kartalarda, yozuvlar to'rtta maqsadiga ko'ra xizmat qiladi: (1) tasvirlash uchun, (2) tushuntirish uchun, (3) markaz yoki punktlarni tasvirlash uchun, (4) miqdorli va sifatli miqdorlarni tasvirlovchi shartli belgi sifatida. Kartalardagi yozuvlar geografik kartalarning muhim elementi hisoblanib, katta ma'noni anglatadi. Rasm va shrift o'lchami obyektlarning sifat va miqdor tavsifini aks ettiradi.

Kartadagi yozuvlar 3 ta guruhga ajratiladi: *topografik, atamalar va izohlovchi yozuvlar*. Kartada gidrografiya obyektlari, tuproq, o'simlik qoplami va ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarning nomlari yoziladi, biroq kartaga joylashtirilgan hamma obyektlar ham o'z nomlari bilan yozilmaydi. Masalan, umumgeografik kartalarda daryo va tog'larning bir qismi nomlari yozilmasdan berilishi mumkin.

"Xaritadaagi yozuvlar" deganda xaritadaagi yordamchi va qo'shimcha elementlar tarkibidagi emas, balki bevosita xarita mazmunini beruvchi, ya'ni kartografik tasvirdagi yozuvlar tushuniladi. Ba'zi kartograflar xaritalardagi yozuvlarni *"zaruriy nuqson"* deyishadi, chunki ular tasavvurni to'ldirib yuboradi va murakkablashtiradi. Yozuvlar xaritaga tushirilganda vizual ko'rinishning muhim elementiga aylanadi. Ular e'tiborimizni tortadi va boshqa belgilarni xiralashtiradi. Amalda, xaritaning grafik sifati ko'p jihatdan yozuvlar shakli va joylashtirilishiga bog'liq holda bo'ladi.

Toponimlar – xaritaga olish obyektlarining geografik nomlari. Ularga oronimlar (relyef elementlari nomlari), gidronimlar (suv obyektlari nomlari), etnonimlar

(etnoslar nomlari), zoonimlar (hayvonot turlari nomlari) va boshqalar kiradi. Aynan ularni xaritada to'g'ri yozilishi jiddiy masala hisoblanadi.

Atamalar – xaritaga olish obyektlariga tegishli bo'lgan tushuncha. Bular umumgeografik, geologik, okeanologik, ijtimoiy-iqtisodiy va istalgan boshqa atamalar bo'lishi mumkin. Masalan, “provinsiya”, “iqtisodiy rayon”, “ko'rfaz”, “pasttekislik” va boshqalar.

Tushuntirish yozuvlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✚ sifat ko'rsatkichlar (“achchiq”, “chuqur”, “terak”, “qum”, “toshloq”);
- ✚ miqdor ko'rsatkichlari (absolyut va nisbiy balandliklar, suv oqimi tezligi, chuqurligi va boshqalar);
- ✚ xronologik yozuvlar (voqea sodir bo'lgan vaqt, geografik sayohat amalga oshirilgan vaqtlar, suv ko'payish va kamayish vaqti);
- ✚ harakatdagi belgilarga tushuntirish xatlarini (dengiz va temir yo'llarda tashiladigan yuklar, Magellan sayohati);
- ✚ koordinata to'rlarini ko'rsatuvchi raqamlar va ularni nomlarini (Grinvidan sharqda yoki g'arbda, janubiy va shimoliy qutb chizig'i) va boshqalar.

Asosiy qism: Matnli materiallar *kartaning mavzusi*, kartalarning nomlari muvofiq keluvchi kartografik shriftlar bilan yoziladi. Yirik masshtabli topografik kartalarni tuzishda obyektlarni nomlari va ularga tegishli bo'lgan izohlovchi yozuvlar va tasniflar har bir element tuzilgandan keyin originalga yoziladi. Mayda masshtabli umumgeografik va mavzuli kartalarni tuzishda nomlar butun karta mazmuni tuzilgandan keyin yoziladi. Kartadagi hamma yozuvlar to'g'ri joylashtirilishiga va yaxshi o'qilishiga alohida e'tibor berish zarur.




Nomlarni yozish hamdo'stlik davlatlari, avtonom respublikalar, viloyatlar, shuningdek xorijiy davlatlarning geografik nomlarini berish bo'yicha ko'rsatmalarga muvofiq tarzda amalga oshiriladi. Shu ko'rsatmalarga ko'ra hamma boshqa tildagi geografik nomlar kartalarda beshta usul bilan beriladi: transkripsiya bilan, transliteratsiya bilan, mahalliy, rasmiy, an'anaviy va tarjima shakllari bilan berib o'tiladi.

1-rasm Mavzusi noto'g'ri joylashtirilgan karta

Manbalar va boshqa izohli materiallar. Ko'pchilik mavzuli kartalar uchun foydalanilgan manbaning ma'lumotiga tayangan holda ko'rsatiladi. Bu yozma adabiyotlarda qo'llaniladigan uslublarga tenglashadi. Hamma kartografik va boshqa materiallarni yig'ish, tahlil qilish va baholashning asosiy maqsadi – asosiy, qo'shimcha va yordamchi manbalarni yig'ish bo'lib, kartani tahririy tayyorgarligi uchun va karta tarkibining hamma elementlarini tuzish uchun zarurdir.


Joy nomlarini tarqatishning yetakchi prinsiplari. Kartaning maqsadi va mazmunidan kelib chiqqan holda, joy nomlarining turlariga bog'liq bo'lgan kelishuvlar hamda kartalardagi yorliqlar va joy nomlarining tarqalishi bo'yicha ortiqcha talablari bo'lmagan, yetakchi prinsiplar mavjud. Ularni tarqatishning eng asosiy omili bu – aniqlikdir. GAT dasturlarida joy nomlarini tarqatishning o'ziga xos xususiyatlarini, ya'ni kartaning maqsadi va mazmuniga mos holda nomlarni tanlash hamda nomlarning ko'p turdagi kutubxonalarini o'z ichiga oladi. Keyingisi – bu umumiy



qo'llaniladigan yetakchi prinsidir (2-rasm).

2-rasm Joy nomlarining afzal holda joylashtirilishi

Niqoblar va shartli belgilar. Niqoblar deb - kartada to'g'ri burchakli shaklga, ya'ni kartada tasvirlangan ranglardan farq qiladigan shakl ichidagi yozuvga aytiladi. Ulardan foydalanganda, ehtiyot bo'lish zarur, chunki ular kartadagi ma'lumotlarni to'sib qo'yishi mumkin. *Callouts* niqoblari bo'rttirilgan chiziqlar bilan tasvirlanib, ular obyektning funksiyalarini ko'rsatadi. Ko'pchilik shakllar bo'rttirib tasvirlash uchun xizmat qiladi. *Haloslar* harflarning konturlarini yaxshi tasvirlab, soyalar yozuvlarni boshqalardan ajratib turadi (3-rasm).



3-rasm. Niqoblar, areallar va bo'rttirib ko'rsatuvchi shartli belgilar karta foni o'zgarganda yaxshi foyda beradi

Nashr qilish prinsiplari. Uslublar kartalarni yaratishda va kartadan foydalanuvchilar tomonidan juda ko'p tanqidga uchraydigan jihat hisoblanadi. Kartadan foydalanuvchilar tomonidan "o'qilishi qiyin" va "qo'pol yozuvlar" kabi izohlar beriladi. Agarda karta tuzuvchi tahririy tayyorgarlik ishlari jamoasi kartada uslublar va yozuvlarni to'g'ri tanlay olishsa, bunday e'tirozlarga yo'l qo'yilmaydi.

Shriftlar. Harf va raqamning ayrim elementlari kengligi, balandligi, yo'g'onligi, rasmning qanday holatdaligiga ko'ra aniqlanadi. Shriftli belgilar orqali asosiy elementlar (yo'g'on chiziqlar), qo'shimcha elementlar (birlashma hosil qiluvchi shriftlar, burchaklarni birlashtiruvchi, tomchisimon elementlar, tubi qirzilgan elementlar) va harfning ichki qismi yorug'liklarini tasvirlashi mumkin. Ular orasidagi farqlarni kartografik shrift turiga qarab, xarakterlash mumkin.(4-rasm)



4-rasm. Bazali chiziqda harflarning joylashishi

Shriftlar 5 ta asosiy guruhga bo'linadi:

- 1) farqi yaqqol seziluvchi, bog'lab turuvchi elementi asosiga nisbatan notekis va uzun-ingichka qirzilgan;
- 2) o'rtacha farqlanadigan (kontrastli), bog'lanish elementi asos bilan bir xil sillilikda va kalta qirzilgan;
- 3) deyarli kam farq qiladigan, bog'lanish elementi asos bilan bir xilda va to'g'ri burchak shaklida qirzilgan;
- 4) kam farqlanadigan, notekis, keskin bog'langan va uchlari asos kabi yo'g'onlikda to'g'ri qirzilgan;



5) ko'zga yaqqol tashlanmaydigan, qirqilish chizig'isiz;

Aniqlik. Kartani o'qish jarayonida shriftni oson va tez qabul qilish, o'qilish, shriftdan oqilona foydalanish barcha turdagi kartalarning talabidir. Bu majburiyat ayniqsa shrift shartli belgi bo'lib xizmat qilganda namoyon bo'ladi. Bunday holda shriftning shakli o'lchami va boshqa grafik vositalarga ko'ra, alohida turlarga ajratilishi muhimdir. Shriftni oson o'qish va farqlash uchun uni ranglarda ko'rsatish mumkin.

Xulosa: Xulosa shundan iborataki kartalarni yaratishda kartografik dizaynning bir bo'lagi bo'lmish kartadagi yozuvlar hamda matnli materiallarni to'g'ri qo'llash.

Bu kartalardan foydalanuvchilarda paydo bo'ladigan tushunmovchiliklarni oldini olish va kartalarning ma'zmun mohiyatini to'g'ri yoritib berish kartaning o'quvchanligida kartografik yozuvlarning xalqaro standartlarga javob berishi, atamalarda qo'llanilishini to'g'ri nazorat qilish va nashr qilishdagi e'tiborli joylarni ko'zdan qochirmay kartani yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bularning barchasi kartaning mukammalligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Kartografik dizayn" 78-101 b. O.A. Ibragimov, E.YU.Safarov. Toshkent -2019
2. " Kartalarni loyihalash va tuzish" 100-145 b. Ibraimova A.A. Toshkent-2021
3. "Kartografiya" 238-243b. Ibraimova A.A . Toshkent-2019
4. "Kartashunoslik" 74-79b. T.Mirzaliyev, E.Yu.Safarov, A. Egamberdiyev, J.S. Qoraboyev . Toshkent-2012